

OG‘ZAKI MULOQOT AKTIDA SO‘Z TARTIBI

**Saparbaeva Gulandam Masharipovna-Tarjima nazariyasi va amaliyoti
kafedrasi dotsenti, Urganch davlat universiteti**

ANNOTATSIYA

Kommunikativ tilshunoslikda verbal muloqotda jumla tartibi adabiy til sintaksisida nazarda tutilgan qoidalaridan mustasno holatlar tilshunoslik tadqiqotlarida doimiy muhokamada bo`lgan mavzulardan sanaladi. Ushbu maqolada og`zaki muloqotda so`z tartibi odatda so`zlovchi tomonidan belgilanishiga oid fikrlar muhokamaga tortilgan.

Kalit so`zlar: muloqot, gap tuzilishi, kleft, qolip, diskurs belgi, diktum

Biron-bir tilning grammatikasini undagi leksik-grammatik birliklarning bog‘lanishlari, sodda va qo‘shma gap turlari, gapdagi so‘z tartibi va uning ta’sir ifodasi haqidagi bilimlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Og‘zaki muloqot aktining yaratilishi va tuzilishi borasidagi bir qancha sotsiolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, og‘zaki muloqot akti biron-bir tayyorgarliksiz, tabiiy sharoitda, muloqot ishtirokchilarining istak-xohishi, ehtiyoji va qiziqishi mahsuli sifatida nutq faoliyatida aks etadi. Shu o‘rinda yozma matnning turg‘un, tartibli, qolipga solingan qoidalariga o‘rganib qolgan struktur tahlilchilar nuqtai nazarida bu o‘rganishga arzimaydigan yoki o‘rganib oxiriga yetib, bir xulosa hosil qilib bo‘lmaydigan, betartib, nuqsoni haddan tashqari ko‘p bo‘lgan matn (agar shunday atash mumkin bo‘lsa) sifatida baholansa-da, bu haqiqiy jonli, insonlar kundalik muloqotida kommunikativ vazifani bajarayotgan til, ya’ni ijtimoiy hodisa sifatida tadqiqot ob’ekti bo‘lishga loyiqidir. Ma’lumki, tildagi darak, so‘roq va undov gap tartibi, o‘z maqsad va vazifasidan kelib chiqqan holda, gap bo‘laklari muayyan tartibga ega bo‘ladilar. Bu o‘rinda og‘zaki muloqot aktidagi jumla tartibini muhokama qilishdan biroz chekinib, faqat jumladagi so‘zlar tartibining o‘zgarishiga sabab bo‘ladigan holatlar yuzasidan muayyan fikrlar bayoni tadqiqot mazmunini boyitadi.

Og‘zaki muloqot aktida, so‘zlovchi istak-xohishiga ko‘ra, alohida ta’kidlash, ajratib ko‘rsatish, mazmun ta’sirchanligini oshirish uchun ayrim gap bo‘laklari gap boshiga yoki oldingi o‘ringa o‘tkazilishi to‘g‘risida deyarli barcha grammatikaga

oid kitoblarda ta’kidlangan. Bu til hodisasi, ingliz tilida fronting device¹, ya’ni oldinga ko‘chirish deb nomlangan. Shunga qarab, bu ko‘chirishning ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi va hol turlari farqlanadi. Masalan:

Ega: – Men, siz aytgandan keyin u yerga bordim².

Kesim: – Ko‘rmoqchiman men menyuni, agar sizga bu malol kelmasa³.

To‘ldiruvchi: – Chemodanni siz oching iltimos⁴.

Aniqlovchi: – Kirish qismi ma’ruzaning juda qisqa bo‘ldi⁵.

Hol: a) Payt holi: – U qachon tayyor bo‘ladi? – Ertaga istagan vaqtingizda⁶.

b) o‘rin holi: Shahringizga birinchi marta kelishimiz bizning⁷.

d) sabab holi: Issig‘im baland bo‘lgani uchun men bu yerdaman⁸.

Og‘zaki muloqot aktida yozma muloqot matnidagi tartibdan farq qiluvchi quyidagi gap shakllarini uchratishimiz mumkin. Masalan:

1. Otangni aytaman, hali ham gazeta o‘qiyapti.

2. Nima emish, ketarmish, bekorlarni aytibdi. Men ruxsat bersam ketadi, bo‘lmasa yo‘q.

Ushbu jumlada so‘z tartibi yoki uslubi, izohi biron - bir grammatik qo‘llanmada berilmagan. Faqat hozirgi kunda zamonaviy kommunikativ tilshunoslikdagi gap bo‘laklarining oldingi o‘ringa o‘tish hodisasi kuzatiladi. Odatda bu xodisa alohida ta’kidni amalga ifodalash uchun qo‘llaniladi. Shu o‘rinda zamonaviy tilshunoslikda gap bo‘laklarining o‘zgargan tartibi borasidagi fikrlarni gap bo‘lagining butun gapga yoki matnga ta’siri (kommunikativ dinamizm), nazarda tutilgan fikr(tema), alohida izoh(rema), butun matn mazmunini o‘zida aks ettiradigan gaplar haqidagi dolzarb fikrlarda uchratishmiz mumkin. O‘zbek tilida og‘zaki muloqot aktining disurs belgilarini sub’ektning diktumga munosabatiga ko‘ra matniy, shaxslararo, g‘oyaviy ta’kid kabi jumla tarkibiy qismlari tadqiqotlarida kuzatishimiz mumkin⁹.

¹ Halliday M. Introduction to Functional Grammar: 4th edition, U.K. Birmingham: Companion-Website. 2014. – P. 236.

² Дадаҳонов А., Дўсимбетова Н., Панферова И. Ўзбекча-инглизча-русча сўзлашгич. -Тошкент, 2013. – Б.132.

³ Красных В.И., Гаюпов С.И. Ўзбекча-русча ва русча-ўзбекча сўзлашув китоби. – Тошкент:Faafur Fулом номидаги нашириёт матбаа ижодий уйи. 2019. – Б. 73.

⁴ Дадаҳонов А., Дўсимбетова Н., Панферова И. Ўзбекча-инглизча-русча сўзлашгич. – Тошкент, 2013. – Б.89.

⁵ Кўрсатилган манба. – Б.149.

⁶ Кўрсатилган манба. – Б.156.

⁷ Кўрсатилган манба. – Б.74.

⁸ Кўрсатилган манба. – Б.93.

⁹ M.A.K. Halliday. Introduction to Functional Grammar: 4th Edition revised by M.Christian, M. Matthiessen. Birmingham, U.K., 2014. – P. 276.

Og‘zaki muloqot aktida ko‘p uchraydigan yana bir lingistik xodisa bu kleft bo‘lib og‘zaki muloqot aktidagi kutilmagan yoki tanish bo‘sh o‘ringa nisbatan qo‘llanilib alohida e’tirof bilan to‘ldirish ilova debaytiladi. O‘zbek tilida ilova elementlar kleftni to‘ldirish uchun qo‘llaniladi va og‘zaki muloqot aktining mazmun va tarkib jihatdan to‘liqligini ta’minlaydi. Shu o‘rinda kleft hodisasiga ta’rif berish muhim. Kleft og‘zaki muloqot aktida alohida urg‘u bilan aytilib, biron bir xabar yoki ma’lumotni to‘ldirish uchun foydalaniladi. Kommunikativ grammatikadagi kleft gaplardan farqli ravishda, og‘zaki muloqot aktida kleft nafaqat gap, balki so‘z, so‘z birikmasi yoki jumla bilan ifodalanishi mumkin. O‘zbek tilidagi og‘zaki muloqot aktida uchraydigan kleftlarni quyidagi uch turga ajratish mumkin:

- 1) tinglovchi klefti;
- 2) so‘zlovchi klefti;
- 3) kleft-ellipsis(so‘zlovchi va tinglovchi tafakkurida to‘ldirilishi)

Tinglovchi tomonidan amalga oshirilgan kleft muloqot jarayonida so‘zlovchining nutqini muntazam kuzatayotganligini anglatadi va odatda so‘zlovchining aytmoqchi bo‘layotgan so‘z, so‘z birikmasi yoki jumlasini oldindan taxmin qilib muloqotda fikrini ifodalashda ko‘maklashish holatida namoyon bo‘ladi.

Masalan:

- Men kecha bozorga bori-i-ib shifobaxsh bir narsa....
- Zanjabil.
- Ha, ha, xuddi o‘shani sotib oldim!

So‘zlovchi og‘zaki muloqot aktida diktumda muayyan ob’ektga alohida e’tibor qaratish, batafsil ma’lumot berish uchun kleftdan foydalanadi. Ba’zan insonning muloqot odati nutqda so‘z boyligining kamligi yoki tayyorgarliksiz boshlangan nutqning belgisi yoki hayajon ta’siri sifatida ham og‘zaki muloqot aktida kleft namoyon bo‘lishi tabiiydir. Masalan: «Men sizga shifobaxshligini alohida e’tirof qilmoqchi bo‘lgan narsa bu (sukut) zanjabildir».

- Xo‘sh, xo‘sh, davom eting!

Og‘zaki muloqot aktida ayrim holatlarda tinglovchi va so‘zlovchi o‘zaro bir-birini tushungan holda, muloqotda bo‘shliqni tafakkurlarida to‘ldiradilar. Bu muloqotning kognitiv xususiyatlardan biri bo‘lib, nutqning ixchamligini ta’minlaydi. Muloqotning keyingi o‘rinlarida bir-birini o‘zaro tushungan holda obektning alohida belgi-xususiyatlari haqida suhbatida davom etishlari mumkin.

Masalan:

– Nomini takrorlab o‘tirmoqchi emasman, siz uni yaxshi bilasiz. Undan hamma narsa kutish mumkin. Ehtiyot choralarini ko‘rib qo‘ygan ma’qul! – To‘g‘ri aytasiz, har ehtimolga qarshi.

O‘zbek tilshunosligida kirish so‘zlar, undalmalar qatori bu birliklar ham og‘zaki muloqot aktining ajralmas qismi sanaladi. Agar M.Xallidey nazariyasidan kelib chiqib gap tahlil qilinsa, barcha element o‘z nomiga ega bo‘lsa, demak, ushbu tadqiqot yo‘nalishi to‘g‘ri bo‘ladi. Yuqoridagi jumlaning ushbu nazariya bo‘yicha tahlili quydagicha amalga oshirilishi mumkin: «Otangni aytaman, hali ham gazeta o‘qiyapti.»(U hali ham gazeta o‘qiyapti, otangni aytaman.)

Ushbu jumlada anaforik murojaat (u-ota) munosabati mavjud, endi (kleft – bo‘shliq) bu ikki so‘z o‘rtasida yoriq, ya’ni to‘ldirilishi, izohlanishi kerak bo‘lgan bo‘shliq mavjud, bu bo‘shliq esa kim? so‘rog‘iga javob berilishi bilan to‘ldirilgan.

Nima emish, ketarmish, bekorlarni aytibdi. Men ruxsat bersam ketadi, bo‘lmasa yo‘q.

Bunda kleft bo‘shliq so‘zlovchining o‘zi tomonidan to‘ldirilib, unga shaxsiy fikr bildirilgan. Fikr bayonida ruxsat bersam – bo‘lmasam yo‘q birikmalari o‘rtasida yana kleft mavjud bo‘lib, bunda tinglovchi bo‘shliqni o‘z tasavvurida (ruxsat berilmasa) iborasi bilan to‘ldiradi. Demak, og‘zaki muloqot aktida grammatik shakl, ellipsis orqali ifodalangan matniy bo‘shliqlarni kleft deb qabul qilsa bo‘ladi. O‘z navbatida, muloqot jarayonida, so‘zlovchiga tinglovchi tomonidan berilgan javobda munosabatni ifodalovchi gap bo‘laklarini matniy, shaxslararo va fikriy turlarga ajratish masalasiga e’tibor qaratish o‘rinli. M.Xallidey o‘zining «Funktional grammatikaga kirish»¹⁰ asarida ushbu uchta turga kiruvchi leksik birliklarning ro‘yxatini taqdim qilgan. Unga ko‘ra, bundan tashqari, undan tashqari, xuddi shunday, shu yo‘sinda, shu kabi, jumladan, masalan kabi gap komponentlari shaxslararo munosabatni ifodalovchi birliklardir.

Research Science and Innovation House

¹⁰ M.A.K. Halliday. Revised by M.Christian, M. Matthiessen. Introduction to Functional Grammar: 4th Edition. U.K., Birmingham, 2014. – P. 234.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Halliday M. Introduction to Functional Grammar: 4th edition, U.K. Birmingham: Companion-Website. 2014. – P. 236.
2. Дадахонов А., Дўсимбетова Н., Панферова И. Ўзбекча-инглизчарусча сўзлашгич. -Тошкент, 2013. – Б. 89.132.
3. Красных В.И., Гаюпов С.И. Ўзбекча-русча ва русча-ўзбекча сўзлашув китоби. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи. 2019. – Б. 73.
4. Сулейманова Н. К. ГЁТЕ И ЕГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ КАК ШЕДЕВР МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 29. – С. 343-346.
5. Рахимова Г. Ю. ФОРМАЛЬНАЯ СТРУКТУРА АНГЛИЙСКИХ РЕДУПЛИКАТИВНЫХ СЛОВ //ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ. – 2020. – Т. 57. – №. part 6. – С. 48.
6. Рахимова Г. Ю. ФОРМАЛЬНАЯ СТРУКТУРА АНГЛИЙСКИХ РЕДУПЛИКАТИВНЫХ СЛОВ //Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe. – 2020. – №. 5-6. – С. 48-50.
7. Рахимова Г. Ю., Жуматов Р. Я., Норбоев У. Система номинативных единиц современного английского языка //The Seventh European Conference on Languages, Literature and Linguistics. – 2015. – С. 21-26.
8. Рахимова Г. Ю., Якубова З. Ш. СИСТЕМА НОМИНАТИВНЫХ ЕДИНИЦ СОВРЕМЕННОГО АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА //Евразийский союз ученых. – 2020. – №. 7-3. – С. 14-17.
9. Рахимова Г. Ю., Якубова З. Ш. Система номинативных единиц современного английского языка //Евразийский Союз Ученых. – 2020. – №. 7-3 (76). – С. 14-17.
10. Oktambaeva P. N. Periodic functional study of military terms in our national language //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 139-144.
11. Oktambaeva P. N. Periodic functional study of military terms in our national language //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 139-144.



12. Surayyo I. et al. PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF TEXT AND LANGUAGE ADVERTISING //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 15. – С. 75-77.
13. Сулейманова Н. К. ГЁТЕ И ЕГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ КАК ШЕДЕВР МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 29. – С. 343-346.
14. Сулейманова Н. К. ДИАЛОГ КУЛЬТУР ЗАПАДА И ВОСТОКА КАК ОСНОВА ЦЕЛОСТНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 1362-1364.
15. Shavkatovna A. N. et al. DIFFICULTIES STUDENTS FACE WHILE LEARNING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE IN UZBEK SCHOOLS //TADQIQOTLAR. – 2023. – Т. 28. – №. 1. – С. 81-83.
16. Litvinenko E. V. et al. Phono-morpho-lexical similarity of auxiliary morphemes of the dictionary «mukaddimat al-adab»(Xii-century) az-zamakhshari with kazakh language //Utopía y Praxis Latinoamericana. – 2020. – Т. 25. – №. 12. – С. 302-308.
17. Yuldashevna R. G. et al. Linguistic Considerations on the Functional Semantics of English Reduplicative Elements //Remittances Review. – 2023. – Т. 8. – №. 4.
18. Yuldashevna R. G. The Semantic Structure of a Compound Word in Languages //Remittances Review. – 2023. – Т. 8. – №. 4.
19. Yuldashevna R. G. The Semantic Structure of a Compound Word in Languages //Remittances Review. – 2023. – Т. 8. – №. 4.
20. Farkhodovna M. R., Yuldashevna R. G. AN ANTHROPOCENTRIC APPROACH TO TERMS AND LANGUAGE //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2023. – Т. 12. – №. 06. – С. 25-27.
21. Farkhodovna M. R., Yuldashevna R. G. AN ANTHROPOCENTRIC APPROACH TO TERMS AND LANGUAGE //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2023. – Т. 12. – №. 06. – С. 25-27.
22. Yuldashevna R. G. Analyses of reduplicative words in English language //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &



INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – С. 44-48.

23. Yuldashovna R. G. Analyses of reduplicative words in English language //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – С. 44-48.

24. Yuldashovna R. G., Kudratovna B. D. The scientific features of simultaneous translation (conference translation) and the current role in the process of translation //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 04. – С. 49-52.

25. Yuldashovna R. G., Kudratovna B. D. The scientific features of simultaneous translation (conference translation) and the current role in the process of translation //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 04. – С. 49-52.

26. Рахимова Г. Ю., Арнамуратов Э. Структурно-семантические особенности и коммуникативные функции редупликативных слов в английском языке //Архивариус. – 2020. – №. 5 (50). – С. 39-42.

27. Рахимова Г. Ю., Арнамуратов Э. СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ФУНКЦИИ РЕДУПЛИКАТИВНЫХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ //Контактная информация организационного комитета конференции. – С. 39.

28. Рахимова Г. Ю., Арнамуратов Э. СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ФУНКЦИИ РЕДУПЛИКАТИВНЫХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ //Архивариус. – 2020. – №. 5. – С. 39-42.

29. Masharipovna S. G., Matnazarovna P. M., Toxirovna E. Y. VOCABULARY TEACHING STRATEGIES USING IN ESP CLASSES //Кронос: общественные науки. – 2019. – №. 2 (16). – С. 17-18.

30. Yesmurzaeva A. THE ACT OF ORAL COMMUNICATION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 89-91.



31. Ibragimova X. S., Saparbaeva G. M. OG ‘ZAKI MULOQOT AKTIDA OBYEKТИV VA SUBYEKTIV MODALLIK KATEGORIYALARI //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – T. 2. – №. 7. – C. 102-105.
32. Saparbaeva G., Jumaniyazova S. THE INTERNET IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B5. – C. 62-66.
33. Saparbaeva G. M., Azatova N. A. TRANSLATION STRATEGIES OF CULTURE-SPECIFIC WORD INFairyTALES FROM AND INTO THE UZBEK LANGUAGE //Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka. – 2021. – T. 1. – №. 1.
34. Saparbaeva G. M. et al. THE MAIN THEORETICAL PROBLEMS OF TRANSLATION OF CULTURE SPECIFIC CONCEPT //Студенческий вестник. – 2021. – №. 4-7. – C. 44-47.
35. Saparbayeva G. M. et al. THE ESTABLISHMENT OF THESAURUS RELATIONSHIP IN ARTISTIC TEXTS //Интернаука. – 2019. – №. 23-4. – C. 30-31.
36. Saparbayeva G. M. et al. COMPARING THE ANALYSIS OF METAPHORS BOTH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES BASED ON THE NOVEL “SISTER CARRIE” BY THEODORE DREISER //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF HISTORY, CULTURAL STUDIES AND PHILOLOGY. – 2019. – C. 71-77.
37. Saparbayeva G. M. et al. TEACHING ENGLISH FOR TOURISM //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF HISTORY, CULTURAL STUDIES AND PHILOLOGY. – 2019. – C. 78-82.
38. Saparbayeva G. M., Jamolatdinova L. R., Bobojonova Y. I. THE PECULIARITIES OF TEACHING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF HISTORY, CULTURAL STUDIES AND PHILOLOGY. – 2019. – C. 64-70.
39. Saparbayeva G. M., Abdullaeva N. F., Bobozhonova Y. I. THE ROLE OF ENGLISH IN TRAVELLING //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 17. – C. 59-63.
40. Saparbaeva G. M., Pirnazarova M. M., Egamberganova Y. T. VOCABULARY TEACHING STRATEGIES USING IN ESP CLASSES //Chronos: общественные науки. – 2019. – №. 2. – C. 18-20.



41. Saparbayeva G. M., Abdullaeva N. F., Bobozhonova Y. I. THE ROLE OF ENGLISH IN TRAVELLING //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 17. – С. 59-63.
42. Masharipovna S. G., Farhodovna A. N., Igorovna B. Y. The role of English in travelling //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 17 (64). – С. 59-63.
43. Saparbayeva G., Ibragimova A. Combining digital stories with the Internet //Бюллетень науки и практики. – 2018. – Т. 4. – №. 7. – С. 503-505.
44. Gulandom S., Anahon I. Combining digital stories with the internet //Бюллетень науки и практики. – 2018. – Т. 4. – №. 7. – С. 503-505.
45. Anahon I., Gulamand S. Methods and techniques to integrate digital stories in ELT //Бюллетень науки и практики. – 2018. – Т. 4. – №. 5. – С. 681-688.
46. Saparbaeva G. M., Matyakubov Z. M., Dusmetova S. M. Semantic analysis of words denoting 'motherland' in english sayings and proverbs //Бакалавр. – 2016. – №. 7-8. – С. 20-25.
47. Tillayevna M. G., Alisherovna O. D., Masharipovna S. G. Social and Linguistic peculiarities of Taboo //European journal of literature and linguistics. – 2016. – №. 2. – С. 23-24.
48. Jumaniyazovich J. A., Masharipovna S. G., Rustamovna S. B. Sanskrit borrowings in English and Uzbek languages //The Seventh European Conference on Languages, Literature and Linguistics. – 2015. – С. 26.
49. Feruza B. NEYROLINGVISTIKA TILSHUNOSLIKNING YANGI SOHALARIDAN BIRI //PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 52-55.

Research Science and Innovation House